



**HARBIY XIZMATCHILARNING OILASINI IJTIMOIIY –
PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK MOSLASHUVIDA MUOMILA VA
AHAMIYATI**

I.I.Rejametova

*Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik
ta'minlash kafedrası dotsenti*

Annotatsiya: *Shu bu maqalada keltirilgan ma'lumotlar asosan harbiy xizmatchilarni oila va moslashuv, muomila jarayoniga asosiy e'tiborni qaratilgan. Maqolada keltirigan ma'lumotlar ochi va mazmunli ko'rinishda aks ettirilgan va keltirilgan manbalar ijtimoiy – psixologik va pedagogik omillarni o'z ichiga qamrab olgan.*

Kalib so'zlar: *Harbiy xizmatchi, obraz, professional, vizual, tafakkur, relaksatsiya, ehtiyotkor, davlat, prinsip, huquq, stress, kommunikativ, interaktiv, perseptiv.*

XXI asr jahon ijtimoiy taraqqiyotida o'zining hayotbaxshligi bilan boshqa davrlardan keskin farqlanib turadi va o'z navbatida demokratiyaning yer kurrasida keng quloqch yoyganligi bilan betakror sanalar yig'indisi bo'lib hisoblanadi. Ikki qarama-qarshi qutb barham topib, uning o'rnida yosh mustaqil, demokratik yo'l tutgan qator mamlakatlar vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi ham ana shunday yosh mustaqil davlat sifatida jahonda o'z o'rnini topdi va butun diqqat - e'tibor rivojlanishning asosiy negizi, puxta tayanchi tarzida ikkita omilga qaratildi, ya'ni, ma'naviyat va uzuluksiz ta'lim tizimi tom ma'noda davlat siyosatiga aylandi. Bunday qat'iy qaror shaxs, barkamol inson tengsiz kapital ekanligini oldindan bashorat qilganligini anglatadi, o'qish, ma'rifat orqali donishmandlar dunyoga keladi va buyuk ajdodlarimizga munosib avlodni voyaga yetkazish uchun zamin hozirlaydi.

Harbiy xizmatchilarning oilasini ijtimoiy-psixologik omillarni ochib berish uchun avvolom bor oila haqida bayon etish mavzuning dolzarbligini ta'kidlaydi.



Birinchi yondashuv, ya'ni, er va xotinning pasport yoshini inobatga olib, oilaga maqom berish to'g'riroq bo'lib, qachon turmush qurganligidan qat'iy nazar, albatta, shu muddat orasida xali yigit ham qiz ham tom ma'noda katta mehnat stajiga ega bo'lmaydi, va ko'p hollarda ayol-ona aynan shu davrda farzandli bo'lib, uy bekasi bo'lib o'tirib qolishi ehtimoli katta. Agar ikkinchi yondashuv bo'yicha yosh oilani oilada yashash muddatiga ko'ra tabaqalashtirilsa, unda u yoki bu jamiyatda nikoh yoshining o'rtacha ko'rsatgichi ortib yoki kamayib borishini nazarda tutish lozim. Chunki ayrim davlatda va ayrim milliy-madaniy muhitda yoshlarni juda erta turmush qurishi rag'batlantirilsa, boshqalarida, ayniqsa, oxirgi yillarda aksincha, yigit va qizlarning kasb-hunar o'rttirish bo'yicha professional malakaga erishish asosiy qadriyat hisoblangan sharoitlarda 30 yoshdan oshgan odam endi oila qurgan yoki xali ham turmush qurmagan bo'lishi ham mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya kabi rivojlangan Yevropa va Amerika davlatlarida, Sharqiy Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida (Yaponiya, Koreya kabi) nikoh yoshi yil sayin ortib, ayrim mamlakatlarda bu raqam 30 yoshdan ham o'tib ketmoqda.

Harbiy xizmatchilarning oilasi biri-birini to'g'iri tushuini va biri-birini qo'llab-quvvatlashi psixologik jihatdan oila mustahkamligini ta'minlaydi.

Albatta, yosh oila borasidagi eng muhim masalalardan biri yoshlarning o'zaro munosabatlari va ularning yangicha munosabatlar tizimiga ko'nikishi masalasidir. Chunki harbiy xizmatchilarning oilasida katta bo'lgan qiz va hg'il bolalar romantik sevgi, bir-birini yoqtirish bosqichidan o'tgan yoshlarning endi yangi oilaviy hayot tamoyillari asosida kundalik hayotni boshdan kechirishiga muayyan qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy. Yigit-ku o'z uyida, ota-onasi yaratib bergan sharoitda yashaydi. Moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklarning eng og'iri kelinchakning bo'yniga tushadi. U boshdan kechiradigan muammolardan biri esa – yangi oila a'zolari bilan muomala maromlarini to'g'ri o'rnatishdir. To'g'ri, to'ydan keyin turkona, o'zbekona urf-odatga ko'ra qizning onasi va uning yaqin qarindoshlari kelinchakni "yo'qlaydi", ya'ni, pishir-kuydir qilib, qiz o'z xonadonida suygan taomini pishirib, yangi kelin tushgan xonadonda dasturxon yuboriladi. Albatta, bu kabi azaliy urf-odatni asosida yotgan muhim sabablar bo'lib, birinchisi, yangi muhitga tushib qolgan qiz bu yerdagi



issiq-sovuqqa tez ko'nikib ketolmasligi, taom tanavvul qilishda keskin o'zgarish bo'lmasligi uchun to ko'nikkuncha, bir necha kun o'z xonadonidan ovqat yuborish va shu orqali uni "yupatish" bo'lsa, ikkinchi ma'nosi – ota-ona qizini unutmaganligi, hanuz unga mehrli munosabatda ekanliklarini izhor qilishdir. Bu kabi munosabatlarning saqlanishi harbiy xizmatchilarning oilasi qisman bizning hozirgi sharoitimizda ham o'zini oqlaydi, lekin yo'qlov bahonasida tog'oralarda ovqatni xadeb kuyov uyiga jo'natilishi, ortiqcha dabdabalarga yo'l qo'yilishida umuman mantiq yo'q. Chunki hozir ko'pchilik onalar oila yumushidan tashqari davlat va jamoat muassasalarida xizmat qiladilar. Ular uchun bunday tashvishlar ortiqcha, ikkinchidan, qizlar ilgarigiday juda erta turmush qurmaydigan va o'qish, ish bahonasida turli taomlarni yeyishga yoshlikdan o'rgangan sharoitda ularning oshqozonlari yangi xonadonda ham birday ishlayveradi. Ya'ni, yosh oilaning mustahkam bo'lishiga rahna soluvchi omillardan biri hisoblanmish ortiqcha ovoragarchiliklar, dabdabali tushliklarning ikkinchi xonadonga yuborilishi bugungi taraqqiyot bosqichida biroz erish tuyulishi tabiiy.

Harbiy xizmatchilar oilasining moslashuvi va muomila jarayonida o'zlariga kerakli bilim va ko'nikmalarni egallashi asosiy tamoyil hisoblanadi. Shu o'rinda muomila xar bir insonning ijtimoiy statuslaridan biri sanaladi, aynan bu jarayonda harbiy xizmatchining o'ziga xos tamonlarni inobatga olish ijtimoiy-psixologik tamoiyillarni oichib berishga yordam beradi. Jahon psixologiyasi fanida muomala kategoriyasi turli tarmoqlarda o'ziga xos jihatlarga asoslangan holda maxsus ilmiy maktablar namoyandalari tomonidan muayyan darajada o'rganilgan, lekin bu mulohazalar uning ahamiyatiga hech qanday zarar keltirmaydi, aksincha tatbiqiy jihatlarining qiymatini yanada orttiradi.

- Harbiy psixologiya fanida muomala kategoriya sifatida tadqiq qilinib, shaxslararo, millatlararo, guruhlararo munosabatlar negizi hamda axborot almashish vositasi tariqasida muayyan darajada o'rganilgan.

- Umumiy psixologiya sohasida esa shaxsning moslashuvi-ijtimoiylashuv asosi ekanligi nuqtai nazaridan tadqiq etilgan.



- Ontogenetik pozitsiyadan yondashuvda bo'lsa, muomala genezisi hamda uning vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi xususiyatlari, mexanizmlari, qonuniyatlari kabi mezonlarga asosiy e'tibor qaratilgan.
- Pedagogik psixologiyada hamkorlik faoliyati nuqtai nazaridan yondashilgan hamda muayyan bosqichlar, fazalar orqali shakllanishi ta'kidlab o'tilgan.
- Bolalar psixologiyasida faoliyat sub'ektlari tomonidan ob'ektiv dunyoni aks ettirishning psixologik quroli sifatida talqin etilgan.
- Muhandislik psixologiyasida muomala "sun'iy intellekt" ning axborot uzatish kanali tariqasida qo'llangan.
- Muomala va uning funksional apparati nuqtai nazaridan tadqiqot ishlari olib borilgan.
- Muomalaga motivatsion yondashuv harbiylar jamoasining shakllanish omili ekanligi.
- Nutq va tafakkur birligi prinsipi muomala mexanizmi sifatida.
- Muomala turlari va fenomenlarining uyg'unligi va hokazo.

Yuqoridagi tasniflardan ko'rinib turibdiki, muomalaga psixologik -pedagogik kategoriya sifatida xilma-xil nazariyalar, yondashuvlar mavjud bo'lishidan qat'i nazar, uni pedagogik psixologiya pozitsiyasidan o'rganish harbiy xizmatchilarni muomila madaniyatini shakllanishiga yordam beradi.

Muomala psixologiya fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, u o'z ichiga shaxslararo munosabatlarning muhim mexanizmlarini qamrab oladi. Psixologiya fanida muomala kategoriyasi keng ma'noda talqin qilinganida shaxslarning hamkorlik faoliyatining ichki o'zaro aloqasini o'zida mujassamlashtirib, ularning o'zaro ta'sirlari va o'zaro munosbatlarini aks ettirib, ijtimoiy-protsessual jabhasini ifoda qiladi. Xuddi shu bois, muomala - bu hamkorlik faoliyatiga nisbatan sub'ektlarning ehtiyoji natijasida vujudga keluvchi, shaxslararo muloqotga kirishuvining mukammallashtirilgan, ko'pqirrali jarayonidir. Jahon psixologiyasi fanida to'plangan ma'lumotlarga qaraganda, muomala kommunikativ, interaktiv, perseptiv tarkiblardan tashkil topadi.



Muomalaning birinchi jabhasi o‘z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o‘zaro axborot almashuvni qamrab oladi va u kommunikativ yoki axborot uzatish tarkibi sifatida tavsiflanadi. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishuvi jarayonida muomalaning muhim va asosiy vositalaridan hisoblanmish tilga va uning amaliy ifodasi bo‘lmish nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar. Muomalaning ikkinchi jabhasi - bu muloqotga kirishuvchi sub’ektlarning o‘zaro bir-birlariga ta’siri (o‘zaro ta’sir o‘tkazishi), ularning nutq faoliyatida nafaqat so‘z yordami bilan o‘zaro fikr almashuvi, balki xatti-harakatlari va xulq-atvori bilan o‘zaro ta’sir o‘tkazish va ta’sirlanishdan (masalan, o‘qituvchi bilan o‘quvchi) iboratdir. Muomalaning uchinchi jabhasi mohiyati shundan iboratki, bunda muloqotga kirishuvchilar yoki muloqotdosh (keng ma’noda)larda o‘zaro bir-birlarini idrok qilish jarayoni namoyon bo‘ladi, natijada insonni inson tomonidan idrok etish jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonning eng ahamiyatli tomoni shuki, bunda muloqotga kirishuvchilar yoki muloqotdoshlar (nisbiy tenglikka ega bo‘lgan sheriklar)ning bittasi ikkinchisining ishonchiga loyiq, aqlli, farosatli, ishbilarmon, e’tiqodli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega bo‘lgan inson sifatida uni (ularni) idrok qilish muhim ekanligini anglash yoki bir-birlarini oldindan hech narsani tushunmaydi, uzatilgan axborotni fahmlay olmaydi, deb taxmin yoki tasavvur etish qabilidagi ruhiy holat vujudga keladi.

Quyidagi sahifalarda psixologlarning shu kategoriyaga oid qarashlari psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida xodimlar tomonidan xizmatni o‘tash tartibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5089-son Qorori talablari asosida huquqiy jihatdan tartibga solinadi. Ushbu qarorga ko‘ra, xarbiy xizmatchilarni ishga qabul qilish hamda o‘z faoliyatini olib borishdagi barcha vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda nafaqat yuridik fanlar, balki shaxslarning ichki ruhiy holati, hissiy kechinmalari va shaxsiy fazilatlarini bilish uchun psixologik bilimlar ham kerak bo‘ladi. Bu esa har bir xodimning kasbiy faoliyatida psixologiya



ilmining sir-asrorlaridan xabardor bo'lish va shu asosda qonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Harbiy xizmatchi xodimlari faoliyatining samaradorligini ta'minlovchi omillar, shuningdek, ushbu faoliyatning psixologik jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, tahlil qilish, shu orqali bu muomila va moslashuvchanlikni takomillashtirishning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish hamda ularni psixologik jihatdan kasbga moslashtirish davr talabidir.

Har qanday kasbiy faoliyat insonga muayyan talablar qo'yadi hamda uning shaxsi va butun turmush tarziga o'ziga xos iz qoldiradi. Harbiy xizmatchi xodimlarining muomila faoliyati samaradorligini belgilab beruvchi shaxsiy xislatlarga ega bo'lishi lozimligini aniqlash uchun ushbu faoliyatning o'zini psixologik jihatdan tahlil qilish, uning o'ziga xos jihatlari aniqlash, tarkibiy tuzilishini ochib berish zarur. Moslashuvchanlikning qonuniyatlarini aniqlash uni nafaqat o'rganishga, balki takomillashtirishga ham qaratilgan tashkiliy tadbirlar tizimini ishlab chiqishga imkon beradi. Xodim kasbiy faoliyatining asosiy psixologik xususiyatlari va tarkibiy elementlarini ko'rib chiqish ham uning faoliyati qanchalik murakkab va serqirraligidan dalolat beradi.

Harbiy xizmatchilari faoliyatining xususiyatlari, ya'ni xizmat faoliyatining huquqiy jihatdan tartibga solinganligi, keng taktik maydonning mavjudligi, hokimiyat vakolatiga egaligi, manfaatdor shaxslarning doimiy ravishda qarshilik ko'rsatishi va to'sqinlik qilishi, kommunikativlik, vaqt tanqisligi va ishning haddan tashqari ko'pligi ularning kasbga moslashuvi hamda amaliy faoliyatida ruhiy jihatdan tayyorgarligiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Bu sanab o'tilgan xodimlar faoliyatining xususiyatlari, agarda xodimda kasbga moslashuv jarayonida kasbiy-psixologik jihatdan yetarlicha tayyorgarlikka ega emasligi uning tashqi ta'sirlar natijasida stresslarga tez tushib qolishiga olib keladi. Xodimlarning tashqi ta'sirlar natijasida stresslarga tushib qolishi oqibatida shaxslararo munosabatlar tizimida nizoli holatlarning kelib chiqishiga, kuch ishlatishga asoslangan usullardan, ya'ni xiralik qilish, zo'ravonlik, qo'rqitish va boshqa g'ayriqonuniy choralardan foydalanishiga olib keladi. Lozim darajadagi



kasbiy-psixologik tayyorgarlikning yo‘qligi – inson beparvoligining muhim sabablaridan biri, toshbag‘irlik, rasmiyatchilik, hokimiyatni suiiste’mol qilish, qonuniylikni buzish va jiddiy kasbiy xatolarning bitmas-tuganmas manbai bo‘lib hisoblanadi.

Psixologiyada shaxsning kasbiy mahoratini tadqiq qilishda A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, B.G.Anan'ev va boshqa psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda rivojlantirilgan ong va faoliyat birligi tamoyiliga¹ fundamental kategoriya sifatida yondashiladi.

T.V.Kudryavsev nazariyasi bo‘yicha muomilaning bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin:²

- 1-bosqich – muloqot;
- 2-bosqich – ta’lim va tarbiya;
- 3-bosqich – muomilaga kirish;
- 4-bosqich – muomila mahorat.

Har qanday mutaxassislikda kasbiy mahoratga erishish davri uzoq va qiyin kechadi. Mazkur muammoning nazariy jihatlarini B.G.Anan'ev, Ye.A.Klimov, A.I.Alekseev, R.Z.Gaynutdinov, E.G.G‘oziyev, va boshqalarning tadqiqotlarida ishlab chiqilgan. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida muloqatning oilada bevosita ishtirok etadigan alohida shaxs tuzilmalari, shakllanish qonuniyatlari, huquqiy madaniyati va hissiy-irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish yo‘llarining psixologik tomonlari tahlil qilingan.

Harbiy xizmatchilarning hissiy-irodaviy o‘zini o‘zi boshqarish yo‘llari va usullarini egallashlari bugungi kunda juda dolzarb vazifadir. Xizmat faoliyatida asablari mustakamroq bo‘lgan, raqib bilan kurashishga yaxshiroq shaylana oladigan, nafaqat jismoniy va aqliy imkoniyatlaridan oqilona foydalana oladigan, balki asabiy-ruhiy faolligini maqbul darajada saqlay oladigan, xizmat faoliyatining murakkab vaziyatlarida o‘zining irodaviy faolligini namoyon qila oladigan xizmatchilar ko‘proq muvaffaqiyatni qo‘lga kiritadilar.

¹ Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание личность. – Москва: Смысл Академия, 2005. – 352 с.

² Душанов Р. Х., Фарфиев Ё. А. Касбий психология: Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – 284-б.



Harbiy xizmatchidagi oilaviy munosabatda hissiy-irodaviy barqarorlikka uning moslashuv faoliyatiga psixologik jihatdan tayyorligini ko'rsatuvchi alomatlardan biri sifatida qarash mumkin. Bu, o'z navbatida, har bir harbiy xizmatchining malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Hissiy-irodaviy barqarorlik deganda, murakkab vaziyatlarda muvaffaqiyatli ishlash uchun qulay bo'lgan psixik holatni saqlash qobiliyati tushuniladi. Oilada muomila va moslashuvchanlikning hissiy-irodaviy barqarorlik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ekstremal vaziyatlarda harbiy xizmatchi harakatlarining samaradorligini pasaytiruvchi va noaniqliklar, adashishlar tug'diruvchi psixologik reaksiyalarning yo'qligi;
- psixologik jihatdan murakkab bo'lgan sharoitlarda vazifani bexato bajarish mashqini olganlik;
- kasbiy ziyraklikni saqlash, tavakkal, xavf-xatar, kutilmagan vaziyatlarga nisbatan oqilona ehtiyotkorlik va diqqatni namoyish etish;
- ishlarni qat'iy qonun asosida yuritishga ta'sir etuvchi shaxslarning ruhiy ta'siriga berilmaslik;

O'zini o'zi boshqarish jarayoni quyidi uchta asosiy prinsipga tayanadi: relaksatsiya; vizuallashtirish; o'zini o'zi ishontirish.

Relaksatsiya prinsipining mohiyatini tana va ruhning birgalikda ishlashga tayyorlanishi tashkil etadi. Aynan relaksatsiya paytida o'z ichki ovozingizni eshitish hamda o'z organizmingiz va tafakkur faoliyatingizning aloqasini his etishingiz mumkin. Relaksatsiya yoki bo'shashish tana va ruhni keraksiz zo'riqishdan va odamni bo'shashtirib yuboradigan jihatlardan ozod qilishni bildiradi, u insonga foydali psixologik va fiziologik ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi jarayon: unda miya xotirjamlashgani sayin tana bo'shashadi, tana bo'shashgani sayin miya xotirjam bo'la boradi.

Vizuallashtirish prinsipi intiutiv tafakkur ongga kirib borishining turli yo'llaridan foydalanadi. Asosiysi manzara hosil qilish yoki miyangizda obrazlarni gavdalanirish yo'lidir. Vizualashtirish yo'nalgan tasavvurni eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm bilish, teri bilan sezish sevgilari hamda ularning kombinatsiyalari yordamida faollashtirishning turli usullarini bildiradi. Aslida inson miyasi ob'ektiv olam obrazlariga ham, ongda yuzaga keladigan obrazlarga ham bir xilda javob beradi. Shu bois vizuallashtirish ko'nikmalari insonga o'z ichki



imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanish, ruhiy jarayonlarning kechishini faollashtirish imkonini beradi.

O'zini o'zi ishonitirish prinsipning mohiyati shundaki, biz o'zini o'zi ishonitirish yordamida ichki obrazlarimizni ongimizda aks-sado sifatida bir necha marta takrorlanadigan so'zlar bilan ifodalaymiz. O'zining ichki kuchi va qo'llab-quvvatlanishi bilan to'lgan bu so'zlar his-tuyg'ular darajasida chuqur qabul qilinadi. Bunday ichki aks-sadoni "Men buni qila olaman" so'zlarida namoyon bo'ladigan munosabat, niyat va mayl sifatida ifodalash mumkin. O'zini o'zi ishonitirish muvaffaqiyatga erishish mumkinligi haqida birinchi shaxs nomidan hozirgi zamonda ifodalangan aniq ta'kididir. Insonning o'ziga qarata aytgan so'zlari o'z maqsadlariga erisha olishiga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi va qaysi yo'nalishda harakat qilish kerakligini ko'rsatadi. Bu so'zlar miyani maqsadga erishish borasida ishlashga va bunda faol ishtirok etishga majbur qiladi. O'zini o'zi ishonitirish – obrazlarni so'zda ifodalashga imkon beruvchi faol moyillikdir.

Shu munosabat bilan xodimlarning kasbga moslashuv jarayonida kasbiy faoliyatning samaradorligini ta'minlaydigan zaruriy, professional jihatdan muhim xislatlarini rivojlantirishga, ular faoliyatining ishonchliligini oshiruvchi psixologik usullarni o'rganishiga, odamlar bilan mohirona ishlashiga yordam beruvchi usullarni o'zlashtirishlari juda muhim.

Inson dunyoga kelibdiki u yoki bu sharoitga ruhiy moslashuvini taqozo etadi. Zamonning o'zgarishi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga inson har doim ham tayyor bo'lavermaydi, zero, insonning bilimi, ko'nikmasi va malakalari doimiy takomillashtirishni talab etadigan fazilatlar sirasiga kiradi.

Jamiyatda shunday kasblar borki, ularni har qanday odam ham eplay olmaydi. Sababi, mazkur xususiyatga kirishishdan avval maxsus sinov va tayyorgarliklardan o'tish talab etiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, har bir davrning o'ziga xos tamonlarni alohida ta'kidlash lozim. Maqolada keltirilgan manbalar harbiy xizmatchilarning oilasini ijtimoiy – psixologik va pedagogik moslashuvida muomila va uning rolini ochi berishga e'tibor qaratildi.



Yangi muhitga moslashuv jarayonini avvalgi yashagan muhitga nisbatan ma'lum darajada begonalashuv jarayonini keltirar ekan, unda oilaning dunyoqarashi, qiziqishi o'zini haq-huquqlarini bilishi hamda psixologiyak holatlarni boshqara bilishi eng asosiy o'rinni egallaydi.

Jahon psixologiyasi tajribasidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ijtimoiy muhitga moslashuvda barcha qurshab turgan tabiat majmuasi ham shaxsga ta'sir etmay iloji yo'q. Ana shu qonuniyatdan kelib chiqib, tadqiqotimizning asosiy o'rganish ob'ekti qilib olgan ijtimoiy muhitimiz va yosh oilaning jamiyatga moslashuvida asosiy omil ekanligini namoyon qildi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha bosqichlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun harbiylar oilasi bilan amalga oshiriladigan ma'rifiy-ma'naviy ishlar aniq rejada olib borilishi hamda muomila va moslashuvchanlik faoliyatida siyosiy faollikka undash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Mirziyoyev Sh.M.31 avgust kuni "O'zbekiston" anjumanlar saroyida O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 26 yilligi munosabati bilan bayram tantanalarida so'zlagan nutqi. <http://qalampir.uz/news/shavkat-mirziyoevning-mustaqillik-bayrami-tantanalaridagi-nutqi-11561>.
- 2.G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. Toshkent, "Universitet" nashriyoti, 2002.
- 3.G'oziyev E.G'. Psixologiya muammolari. Toshkent, "Universitet" nashriyoti, 1999.
- 3.Леонтьев А.Н. Деятельность.Сознание личность. – Москва: Смысл Академия, 2005. – 352 с.
- 4.Душанов Р. Х., Фарфиев Ё. А. Касбий психология: Дарслик. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – 284-б.
- 5.Bern Sh.M.(2001). Gender psychology. (Secrets of psychology). St. Petersburg: Prime – euroznak
- 6.Decree № PF-5843 of the President of the republic of Uzbekistan "On measures to radically improve the system of personnel policy and civil service in the republic of Uzbekistan", october 3, 2019.



- 7.Режаметова, Н. И. (2024). МОДИФИКАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ И ПРАКТИКЕ ДОШКОЛЬНОЙ МУЗЫКАЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 31), 380-382.
- 8.Rejametova, N. I. (2020). Increasing the effectiveness of the professional competence of music leaders in the formation of children's creativity through Uzbek folk instruments. *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 472-477.
- 9.Ikramshikovna, R. I., & Nishanbayevich, D. A. (2025). Regulatory and legal aspects of first aid in international legislation and in the republic of Uzbekistan. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 7(02), 7-16.
- 10.Режаметова, И. И., & Норбутаев, С. А. (2022). YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(3).
- 11.Mukhamedova, D. G., & Abdullajanova, D. S. (2020). The actuality of the gender aspect of the manager's constructive interaction in the conflicting situation. *Journal Of Critical Reviews*, 7(12), 228-231.
- 12.Akhmadjonova, S., & Abdullajanova, D. (2023). Socio-Psychological Features Of Family Conflict Resolution. In *Academic International Conference On Multi-Disciplinary Studies And Education* (Vol. 1, No. 6, pp. 101-108).
- 13.Abdullajanova, D., & Raxmonova, Z. (2020). Motivation to succeed, to avoid defeat and the impact of risk preparedness on women's activism and its socio-psychological factors. *European Journal Of Molecular And Clinical Medicine*, 7(1), 3555-3561.
- 14.Abdullajanova, D. S. (2023). Socio-psychological criteria for the selection and placement of personnel in management (on the example of women). *Confrencea*, 5(05), 401-411.
- 15.Abdullajanova, D. S. (2023). Socio-psychological criteria for the selection and placement of personnel in management (on the example of women). *Confrencea*, 5(05), 401-411.



- 16.Абдуллажанова, Д. С. (2023). ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В НАПРАВЛЕНИИ ЖЕНСКОЙ АКТИВНОСТИ В УПРАВЛЕНИИ. *ПСИХОЛОГИЯ XXI СТОЛЕТИЯ*.
- 17.Мухамедова, Д. Г., & Абдуллажанова, Д. С. (2021). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КАДРОВОГО РЕЗЕРВА: ФОРМЫ И МЕХАНИЗМЫ ИННОВАЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ. *BEING A MUSIC FAN: FANDOM EFFECTS ON THE PSYCHOLOGICAL WELL-BEING OF ITS PARTICIPANTS*..... 12, 187.
- 18.Абдулладжанова, Н. Г., Абдугафурова, Д. Г., Якубова, Р. А., Назирова, Э. Р., & Рахмонова, Г. Г. (2020). ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕПАРАТОВ. *Universum: химия и биология*, (12-1 (78)), 80-84.
- 19.Kadirov, K. B., Mullabaeva, N. M., Abdullajanova, D. S., Kurbanovna, A. D., & Abdullaevna, B. S. (2023). A Mobbing Questionnaire In School And An Analysis Of The Results Obtained. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 23(4).
- 20.Abdullajanova, D. S. (2025). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MOTIVATION FOR SUCCESS AND THE IMPACT OF RISK ON WOMEN. *Modern education and development*, 19(1), 3-12.
- Абдуллажанова, Д. (2024). Социальная критерия как фактор формирования психологического портрета женщин-руководителей в управленческой деятельности. *Общество и инновации*, 5(5), 85-93.
- 21.Abdullajonova, D. S. (2024). Social-Psychological Adaptation to the Educational Environment-As a Factor of Educational Efficiency. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(4), 58-60.
- 22.Abdullajonova, D. (2024). Sand in the image of relatives to establish education in the national spirit through races. *Science and innovation*, 3(B2), 34-39.
- 23.Abdullajanova, D., & Raxmonova, Z. (2020). Motivation to succeed, to avoid defeat and the impact of risk preparedness on women's activism and its socio-psychological factors. *European Journal Of Molecular And Clinical Medicine*, 7(1), 3555-3561.



24. Dilnozakhon, A., & Dilfuza, J. (2023). Problems of adaptation of children of primary school age to school and methods of their elimination. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(2), 295-300.
25. Mukhamedova, D., Abdullajanova, D., Tukhtabekov, K., Fuzailova, G., Babadjanova, S., & Rahmonova, Z. (2019). The main directions of accounting socio-psychological characteristics of the manager of education in the process of optimizing management activities in Uzbekistan. *Journal Of Advanced Research In Dynamical And Control Systems*, 11(10 Special Issue), 1035-1038.
26. Abdullajonova, D. (2025). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MOTIVATION FOR SUCCESS AND THE IMPACT OF RISK ON WOMEN. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 5(1), 10-16. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/10516>
27. Abdulakimovna, S. S. (2024). Methods for Developing Cooperation Between the Family, Neighborhood, Educational Institution in the Socialization of Adolescents with Disabilities. *Journal of Diplomacy, Law, and International Affairs*, 1(1), 6-8.
28. Шакарбоева, Ш. А. (2024). МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА СЕМЬИ, СОСЕДСТВА, ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ЗАВЕДЕНИЯ В СОЦИАЛИЗАЦИИ ПОДРОСТКОВ С ТРУДНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 211-215.
29. Shakarboeva, S., & Gulomitdinov, D. (2023). PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL VIEWS OF ABU RAIKHAN BERUNI AS A FACTOR OF EFFECTIVENESS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *World Bulletin of Management and Law*, 21, 30-33.
30. Shakarboyeva, S., & Qayumov, A. (2024). AUTIZMLI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA ART TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONYATLARI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 4(1), 148-154.